

USING INTERACTIVE METHODS IN ASSESSING YOUR STUDENTS'  
KNOWLEDGE, SKILLS AND SKILLS IN THE PROCESS OF TEACHING  
THE SCIENCE OF EDUCATION

***I.I. Tuychiyeva***

*Head of the Pedagogical Department of FarDU, Doctor of Philosophy (PhD) in  
Pedagogical Sciences, Associate Professor*

***M.N. Azamova***

*Fardu is a third-year student of Pedagogy*

**Abstract:** in this article, the systematic reforms in the field of education implemented by New Uzbekistan in the path of development, the social importance of the subject "Education" introduced in 2020, the role of this subject in bringing the young generation to adulthood, and the subject "Education" in the process of teaching the merits of using interactive methods in the assessment of students' knowledge, skills and qualifications are highlighted.

**Key words:** education, training, knowledge, skills, competence, assessment, interactivity, interactive method, approach, goal, conditions, individuality

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ,  
НАВЫКОВ И НАВЫКОВ ВАШИХ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ  
ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ ОБРАЗОВАНИЯ

***I.I. Tuychiyeva***

*Заведующий педагогическим факультетом ФерГУ, доктор философских  
наук (PhD) педагогических наук, доцент*

***M.N. Azamova***

*Фарду учится на третьем курсе педагогического факультета.*

**Аннотация:** в данной статье рассмотрены системные реформы в сфере образования, реализуемые Новым Узбекистаном на пути развития, социальная значимость введенного в 2020. году предмета «Образование», роль этого предмета в привлечении молодого поколения к взрослой жизни, и предмета «Образование» в процессе обучения освещены достоинства использования интерактивных методов оценки знаний, умений и квалификации учащихся.

**Ключевые слова:** образование, обучение, знания, умения, компетентность, оценка, интерактивность, интерактивный метод, подход, цель, условия, индивидуальность

TARBIYA FANINI O`QITISH JARAYONIDA O`QUVCHILARING BILIM,  
KO`NIKMA VA MALAKALARINI BAHOLASHDA INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISH

*I.I. Tuychiyeva*

*FarDU pedagogika kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent*

*M.N. A'zamova*

*Fardu Pedagogika yo`nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Yangi O'zbekistonning taraqqiyot yo'lida amalga oshirayotgan tarbiya sohasidagi tizimli islohotlari, 2020-yilda joriy etilgan "Tarbiya" fanining ijtimoiy ahamiyati, yosh avlodni voyaga yetkazishda ushbu fanning tutgan o'rni hamda "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda interfaol metodlardan foydalanishning munosib jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, baholash, interfaollik, interfaol metod, yondashuv, maqsad, sharoit, individuallik.

Har bir jamiyatning ravnaq topishi unda o`sb borayotgan avlodning aqliy salohiyati, dunyoqarashi, intilishi, mustaqil fikrlari va eng asosiysi ularning komil shaxs bo`lib yetishishlarini ta`minlashda eng zarur omil – husni xulqiga hamda tarbiyasiga chambarchas bog`liqdir. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiyning “ Fozil odamlar shahri” asarida shunday yoziladi: “Tarbiya oqillikni vujudga keltiradi. Kishining tarbiyasi bo'lmasa , u bema`nilikni xush ko'radi. Qonun farovonlik yo`lidir , shunday ekan , sohibi qonun tarbiyani mustahkamlashga alohida harakat qilishi zarur”. Demak, o`z oldiga milliy yuksalish va dunyo hamjamiyatida munosib o`rinni egallash maqsadini qo`ygan har qanday davlatda eng avvalo, e`tibor yosh avlodning tarbiyasiga qaratilmog`i zarur. Bu borada muhtaram Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyevning ham quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Hech qachon unutmaylik, dunyodagi o`tda yonmaydigan, suvda cho`kmaydigan eng katta boylik bu – bilim va tarbiyadir”. Darhaqiqat, ushbu boylikni ko`paytirish va ezgu maqsad yo`lida sarflash jamiyat rivojining muhim omili sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu o`rinda, “Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da ham yoshlarda milliy tarbiya asoslarini rivojlantirish hamda sifatli ta`limga erishishning eng muhim vazifalari belgilanib, amalga oshirilayotganligini ta`kidlash joizdir. Ushbu amaliy ishlar negizida yosh avlodga uzluksiz ta`lim tizimida sifatli ta`lim berish hamda ularni yuksak milliy tarbiya asosida voyaga yetkazish eng muhim vazifa sifatida belgilab berilgan . Xususan , 2019- yil 31-dekabrda qabul qilingan “Uzluksiz ma`naviy tarbiya konsepsiya”sida ham O`zbekiston “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo`yganligi hamda yangi davr shiddati ta`lim-tarbiya tizimiga ham o`zining aniq, qat`iy talablarini qo`yishi ta`kidlanadi. Ushbu talablar, avvalo ,umumiy o`rta ta`lim maktablarida tarbiya tizimini isloh etish bilan bajarilishi ko`zda tutiladi. Tarbiya tizimidagi ulkan islohot sifatida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020- yilda o`zbek “Pedagogika”fani

tarixida ilk bor “Tarbiya” yangi fani ishlab chiqilganligini ko`rishimiz mumkin. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 6-iyuldagi 422-sonli “Umumiy o`rta ta`lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan “Umumiy o`rta ta`lim muassasalari o`quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasi” ham tasdiqlandi.

“Uzluksiz ma`naviya tarbiya konsepsiyasi”ning bosh maqsadi— yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iboratligi qayd etilgan hamda ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qator vazifalar belgilab berilgan. Vazifalardan biri ma`naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish bo`lib, ushbu vazifa pedagog mutaxassislariga ulkan mas`uliyatni yuklaydi. Vazifani ado etish esa umumiy o`rta ta`lim maktablarida “Tarbiya” fanini o`qitish jarayonida amalga oshishi maqsadga muvofiqdir.

“Tarbiya” fanini o`qitish jarayonida o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholash uchun turli xil yondashuvlar, xususan interfaol yondoshuv orqali ushbu vazifani hal etish masalasi “Tarbiya” fani o`qituvchilarini interfaol metodlar bilan qurollantirishni taqozo etadi.

**Bilim** — kishilarning tabiat jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma`lumotlarning inson tafakkurida aks etishi. Voqelik haqidagi bilgan ma`lumotlarimiz bilim darajasiga ko`tarilishi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma`lumotlarning voqelikka mutanosibliigi; ikkinchidan, bu ma`lumotlar dalillar bilan asoslangan bo`lishi lozim.

**Ko`nikma** — insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko`nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo`llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko`nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy

ko‘nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko‘nikmalar bilim olishga, uni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

**Malaka** — muayyan kasb, ishni yaxshi o‘zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat. Odatda, biron ish jarayonida harakatlar anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda amalga oshiriladi. Harakatni bajarishda ongning borgan sari kamroq ishtirok etishi tufayli ish avtomatik ravishda ijro etila boradi. Buning natijasida topshiriq ravon, ortiqcha kuch sarflamay, tez va sifatli bajarila boradi. Masalan, tajribali kompyuter foydalanuvchisi klavishlarga qaramasdan yozaveradi. Malaka hosil qilish tezligi uning murakkablik darajasi, kishining yoshi, individual xususiyati, bilimi va boshqa omillarga bog‘liq. Kishidagi malaka ko‘pincha, boshqa mahoratni hosil bo‘lishida yordam beradi. Masalan, mukammal nutqiy mahorat egasi, keyinchalik boshqaruvga yoki pedagogikaga oid sohalarda ham qiyinchilikka uchramasdan faoliyatlarini olib boradilar .

Ta‘lim tizimida, bilim, ko‘nikma va malakalar Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘limning davlat ta‘lim standartlarida belgilab qo‘yilgan.

**Baholash** — bu ta‘limdagi turli darajadagi yutuqlar uchun standartlashtirilgan o‘lchovlarni qo‘llash jarayoni. Ushbu tizimdan tarbiya jarayonida o‘quvchilarning har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib yetishishlarini ta‘minlash maqsadida foydalanish uchun interfaol yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Interfaol yondashuvda o‘qituvchilar dars jarayonini yaxshi tashkil etish uchun qulay muhit yaratadilar. O‘quvchilarning o‘zaro fikr (axborot) almashishlariga imkon beriladi. Ular yechimini kutayotgan masalalarni hamjixatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar. Interfaol usullarni yana boshqaca ta‘riflaydigan bo‘lsak interfaol ta‘lim jarayonida dars o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi.

**Interfaol metod** - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari — norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Ushbu amaliy ishlar o'quvchilarda ijodkorlik va interfaollikni rivojlantirishga hamda o'qituvchining dars jarayonida o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini baholashi uchun qator imkoniyatlarni yaratadi.

**Interfaollik**— o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik — o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi (sub'yekt sub'yekt) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi — o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi.

Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin. Tarbiya fanini o'qitish jarayonida interfaol metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq.

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

2. Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. SHuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O'zini o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari ham o'zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma'lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafaqqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari. Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zaro ta'sir etishning asosi bo'la olmaydi. Ularni individual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligini rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko'rinadi.

7. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qullaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo'llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko'rgazmali qo'llanmalar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari shular jumlasidandir

8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'qituvchida ko'p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas'uliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasi past bo'ladi.

9. Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, «kuchli harakatlantiruvchi» metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «ayaydigan» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatlantiruvchi» va «ayaydigan» metodlarga bo'linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq.

10. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishiga ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak.

Tarbiya jarayoni ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlarni hisobga olgan holda tashkil etilgani kabi undagi qo'llanilayotgan interfaol metodlar ham ana shu o'zgarishlarga bo'ysunadi. Interfaol metodlar orqali butun bir sinfning tarbiyalanganlik darajasi va tafakkuri haqida birdek ma'lumotga ega bo'lish va ularni baholash nihoyatda mushkul. Shunday bo'lsada, ma'lum darajada ulardagi bilimga bo'lgan intilish, kelajakka ishonch, ertadan umid, baxt va muvaffaqiyat kabi tushunchalarga nisbatan qarashlarini aniqlab olish interfaol metodlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Tarbiyalashning ilk va so'nggi bosqichini ham baholash orqali amalga oshirish jarayondan kutilgan natijani yanada yuqori ko'rsatkichda bo'lishini ta'minlaydi. Quyida keltirilgan interfaol metodlardan foydalanish o'z navbatida "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida nafaqat o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda balki, ularning o'z maqsadlari sari olg'a borishlarini ham ta'minlashda maqbul faollashtirish vositasi sifatida ahamiyatga molikdir.

**Loyihalash metodi** - o'quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladigan o'qitish tizimidir. Ta'lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.) masalalar bilan bog'liq loyihalarni bajaradilar. Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o'quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, shart hisoblanadi. Loyihalash metodi orqali o'quvchilarda quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishlash; ishchanlik; ma'suliyatni his etish; o'ziga ishonch; o'qitishlilik; tezkor fikrlash; jarayon rivojini bilish; mushohada motivatsiya.

**Keys-study metodi** – (Keys-stadi inglizcha case – aniq vaziyat, study – ta'lim co'zlarining birikuvidan hosil qilingan) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi. Tarbiya fani darsliklarida ham ko'plab pedagogic vaziyatlar kichik keyslar ko'rinishida keltirilgan. Keyslarning didaktik vazifasi sifatida tahlil va baholashga o'rgatuvchi xususiyati alohida izohlanadi. Keyslarni tahlil etish va ularga yechim topa olish orqali barcha o'quvchilarda mustaqil fikrlash, keng mushohadalilik, shaxsiy tahlil, vaziyatga adekvat baho bera olish kompetensiyalari shakllanadi va rivoj topadi. Keys topshiriqlarini bajarishlari davomida o'quvchilardagi mavjud bilim, ko'nikma va malakalar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va baholanadi.

**Klaster** (Klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li - barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish. Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash

jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Toifalarni jadval ko'rinishida rasmiylashtiradilar. G'oyalar va ma'lumotlarni toifaga mos ravishda bo'ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o'zgarishi mumkin. Yangilari paydo bo'lishi mumkin. Ish natijalarining taqdimoti bilan metod nihoyalanadi. Klaster tuzish tarbiya fanini o'qitish jarayonida zararli odatlardan qutulish, maqsadlar xaritasini yaratish, minnatdorlik bildirish, axloqiy me'yorlar bilan tanishish, o'tgan davrlarni sarhisob qilish kabi mavzularni ochib berish hamda o'quvchilarning ushbu tushunchalar yuzasidan bilim va ko'nikmalarini baholashda alohida o'ringa ega. Ushbu metodni yanada qiziqarli, o'quvchi yoshi va qiziqishlariga munosib tarzda o'tkazish o'qituvchining innovatsion qobiliyatiga bog'liqdir.

**BBB Jadvali** - fikrlash, Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishdilar. Alohida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar. "Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni hohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1- va 2-bo'limlarini to'ldiradilar. Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar. Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3-bo'limini to'ldiradilar. Ushbu metod nafaqat

ta'limiy maqsadni amalga oshirishda balki tarbiyaviy jarayonni to'laqonli tashkil etishga ham hissa qo'sha oladi. 1-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan o'quvchilarda egallangan va egallanmagan bilimlar, tarbiyaviy, axloqiy qonun qoidalar, turli ma'lum va noma'lum tushunchalar mavjuddir. Bu haqida Tarbiya fani o'qituvchisida ma'lumotlarning bo'lishi, uning dars jarayonini maqsadli tashkil eta olishini ta'minlaydi.

**VENN diagrammasi** - 2- va 3-jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Ushbu metod tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Avval o'quvchilar VENN diagrammasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to'ldiradilar. Juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar. Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki-uch doiralar uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadi. 1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllaridan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz. 2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqli, to'g'ri chiziqli emasligini o'zingiz tanlaysiz. 3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.

Venn diagrammasi "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida turli tarbiyaviy masalalar, g'oyalar va tarbiyaga oid yondashuvlarni farqlash va o'quvchidagi ustuvor tarbiyaviy omillarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Masalan, "Men uchun maktab va oilamning o'rni", "Mahalladagi va maktabdagi do'stlarim", "Multfilm va ertaklarga munosabatim", "Televizorni yoki telefon" kabi mavzular yuzasidan o'quvchilarning fikr mulohazalarini o'rganishda ko'plab imkoniyatlar taqdim etadi.

**XULOSA:** xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqorida qayd etilgan interfaol metodlar turli fanlarni o'qitish va ta'lim samaradorligini aniqlash bilan bir qatorda tarbiya fanini o'qitishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Izlanishlar davomida ishlab chiqilgan, o'rganilgan va takomillashtirilgan interfaol metodlarning

hammasi ham ta'lim va tarbiyaning maqsadidan kelib chiqqan holda qo'llanilganda o'z samarasini beradi. Tarbiya jarayonini muvofiq tashkillash uchun o'quvchilarning birinchi navbatda tarbiyalanganlik darajasini aniqlash muhim sanalar ekan, o'quvchilarni shunchaki an'anaviy tarzda sinovdan o'tkazmasdan, ularni interfaol yondashuv asosida baholash maqsadga muvofiqdir. Tarbiya fanini o'qitishdan kutilayotgan natijalarga erishishda interfaol metodlarni qo'llash nafaqat o'quvchiga faollik taqdim etadi, balki o'qituvchiga ham o'z kasbiy faoliyatini mazmunli va samarali tashkil etishida ko'mak vazifasini o'taydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abu Nasr Farobiy “ Fozil odamlar shahri” Nodir va dono fikrlar. — T.: “ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlati lmiy nashriyoti , 2004
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning 2022-yil 2-maydagi nutqi. <https://oz.sputniknews.uz/20220502>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida” (04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son)
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish choratadbirlari to'g'risida” 06.07.2020 yildagi 422-son
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, — “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 31.12.2019 yildagi 1059-son
6. M. N. A'zamova BO'LAJAK “TARBIYA” FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARINING O'RNI VA AHAMIYATI. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI 7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

7. G.B. Saidnazarova —TARBIYA FANINI O`QITISH METODIKASI o`quv qo`llanma —KAMOLOT nashriyoti Buxoro-2024
8. Rasulova Sevara Abdunayimovna МАКТАВ ТА`ЛИМДА ІNTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH Международный научный журнал № 5(100), часть 1 «Научный Фокус» Сентябрь, 2023